

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ALOQA, AXBOROTLASHTIRISH VA
TELEKOMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI DAVLAT QO'MITASI
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
SAMARQAND FILIALI

Axborot va pedagogik texnologiyalari fakulteti
Informatika va axborot texnologiyalari kafedrası

5521900-., Informatika va axborot texnologiyalari “
yo'nalishi bo'yicha bakalavr akademik darajasini olish uchun

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: «Fraktal tahlil uchun dasturiy vosita ishlab chiqish»

Ish kafedraning 2013 yil ____ maydagi

№ ____ majlisida muhokama qilindi

va himoyaga tavsiya etildi

Kafedra mudiri _____ dots.

Maxmudov Z.M.

“ ____ ” _____ 2013 y.

Bajaruvchi: 403 gurux talabasi

_____ Abdullaev Ruslan .

Ilmiy rahbar:

_____ assistent Isroilov Sh.Yu.

Samarqand – 2013

Mundarija.

Kirish.....	3
1- bob. Fraktal tushunchasi	7
1.1. Fraktallarning paydo bo'lish tarixi	7
1.2. Fraktallarnind o'lchamlari	15
2- bob. Geometrik fraktallarning algoritm va dasturlari	18
2.1. Geometrik fraktallar	18
2.2. Kox egri chizig'i	19
2.3. Levi egri chizig'i.....	22
3- bob. Algebraik fraktallarning algoritm va dasturlari	27
3.1. Algebraik fraktallar	27
3.2. Mandelbrot to'plamlari	27
3.3. Jyuli to'plamlari	31
4- bob. Axborot oqimlarining fraktal tahlil asoslari	32
4.1. Axborot oqimining fraktal tahlil	32
4.2. ΔL - tahlil asosida vizuallashtirish	35
4.3. Korrelyasion tahlil	38
4.4. Veyvlet – tahlil	42
4.5. Hayot faoliyati xavfsizligi masalalari	45
Xulosa.....	49
Foydalanilgan adabiyotlar	51
Ilova.....	53

Kirish.

Bizga ma'lumki, axborot-kommunikasiya texnologiyalari salohiyati o'zaro muomala qilish va axborot ayirboshlashning prinsipial jihatdan yangi shakllari va imkoniyatlarini ochadi, fuqarolik jamiyati barpo etilishi va mustahkamlanishiga ko'maklashadi, iqtisodiy islohotlar va mamlakatning demokratik rivojlanishi jarayonlarini jadallashtirish imkonini beradi.

O'zbekiston Respublikasi shakllanayotgan global axborot jamiyatida munosib o'rinni egallashga intilmoqda. Ushbu maqsadlarga erishish uchun mamlakat hukumati tomonidan O'zbekistonda axborotlashtirish jarayonlarini faollashtirish, zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalarini tez sur'atlarda rivojlantirish, ularni iqtisodiyot va jamiyatning barcha sohalarida joriy etish hamda foydalanishning strategik ustuvorliklari belgilandi.

Davlat boshqaruvida axborot-kommunikasiya texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish jamiyatni axborot jihatidan keng ko'lamli qayta o'zgartirishning ajralmas qismi hisoblanadi [1,3].

Bu davlat boshqaruvi samaradorligini jiddiy ravishda oshirish, davlatning umuman jamiyat bilan hamda uning ayrim institutlari va fuqarolar bilan o'zaro munosabatlarini optimallashtirish imkonini beradi.

Axborotlashtirish sohasidagi islohotlar izchil olib borilayotgani natijasida respublikamizning barcha tarmoqlari va davlat boshqaruvi organlari oldiga qo'yilgan vazifalardan kelib chiqib, zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalari va telekommunikatsiya tizimlarini rivojlantirish va ularni hayotga keng joriy qilinishiga erishilmoqda.

Jumladan, mamlakatimizda o'tish davrini boshidan kechirayotgan bozor iqtisodiyotining ijtimoiy yo'naltirilgan, ko'p tarmoqli axborot industriyasini tashkil etish, AKTni iqtisodiyotning turli sohalarida keng joriy qilish orqali jamiyatimizning ichki mustahkamligi va ijtimoiy birligini tashkil etish, rivojlangan davlatlar hayoti standartlariga chiqish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan bir qancha farmonlari va hukumat qarorlari qabul qilinib,

ular amalda tadbiriq qilinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 21- martdagi **“Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi ”** qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 20 martdagi f-3987-sonli **“Davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida”**gi O'zbekiston Respublikasi qonuni loyihasi sinovi bo'yicha huquqiy eksperiment o'tkazish haqida”gi farmoyishlari davlat hokimiyati organlari web saytlariga qo'yiladigan talablarni belgilaydi [4,5].

Masala qo'yilishi, Fraktal tahlil qilish jarayonida fraktallarning paydo bo'lishi jarayoni, o'lchamlari va turlari tanlab olinadi. Tanlab olingan fraktallarning algoritmlari qadamma- qadam tahlil qilib o'rganiladi. O'rganilgan algoritmlar asosida axborot oqimining fraktal tahlili uchun algoritmi ishlab chiqiladi.

Har bir yangilik yoki o'zgarish hayotiy zarurat tufayli paydo bo'ladi. Fraktal tushunchasi ham mana shunday hayotiy zarurat tufayli paydo bo'ldi. Buning asosiy sababi tabiatdagi ba'zi narsa, hodisa va voqealarni fanda hozirgacha ma'lum bo'lgan metodlar yordamida tushuntirish imkoniyati bo'lmaganligidir.

Masalan , olamga Evklid geometriyasi nuqtai-nazaridan qarasak , bunga ishonch hosil qilamiz. Evklid geometriyasida nuqtaning o'lchami $D=0$, ixtiyoriy egri yoki to'g'ri chiziqning o'lchami $D=1$, sirtning o'lchami $D=2$, hajmga ega bo'lgan ob'ektning o'lchami $D=3$ deb qaraladi.

Bunda nuqta va ixtiyoriy chiziqning eni yo'q , ya'ni yuzaga ega emas deb qaraladi . Lekin chiziqni yoki nuqtalarni tig'iz joylashtirib, biror sirtni to'ldirsak bo'ladi. O'sha sirt esa yuzaga ega. Agar chiziq yoki nuqta yuzaga ega bo'lmasa, u holda bu yuza qaerdan paydo bo'ldi ?

Yoki ixtiyoriy yuzaga ega bo'lmagan ingichka ipdan to'qilgan mato hajmga ega emas deb qaraladi. Shuning uchun uning o'lchami $D=2$. Agar uni g'ijimlab biror idishga solsak va u idishni to'liq to'ldirsa , bu mato endi yuzaga egami yoki hajmga egami ? Agar hajmga ega bo'lsa, matoning hajmi idishning hajmiga tengmi? Albatta , matoning hajmi idish hajmidan kichik. Chunki matoni qanchalik

ustalik bilan idishga joylasak ham bo'sh joylar qoladi . Demak , idishdagi matoning o'lchami $D=3$ emas , ya'ni $2 < D < 3$. U holda shu sababli butun o'lchamlar bilan birgalikda "kasr" o'lchami ob'ektlari ham mavjud, ekan degan xulosaga kelish mumkin.

Tabiatda mavjud bulgan yana ba'zi narsalarga e'tibor qilaylik. Muz yoki yog'och Evklid geometriyasida uch o'lchovli jism tarzida talqin qilinadi . Lekin, ularning o'lchami ham $D < 3$. Ularning ichida ham bo'shliqlar bor. Shuning uchun Sekst Empirik yozgan edi « Geometriyachilar aytadiki , chiziq ensiz uzunlik deb. Biz skeptiklar esa ensiz uzunlik tushunchasini na aqlga sig'dira olamiz , na his qila olamiz»[6,8,11].

Odamlar hozirga qadar Evklid geometriyasiga tayangan holda atrofimizdagi olamni tatqiq qilib kelishdi. Ya'ni sirti yassi yoki sirtning egilishi biror mavjud matematik qonuniyatga bo'ysunsa, bunday sirt yoki ob'ektni tushuntira oldi. Lekin atrofimizni o'rab turgan olamda Evklid geometriyasi yordamida tushuntirish mumkin bo'lgan ob'ektlar soni jami ob'ektlar soni oldida dengizdan bir tomchi bo'lib qoladi.

Masalan, tog'lar , ulardagi ancha murakkab tuzulishga ega bo'lgan cho'qqilar , bulutlar, sharsharalar, daraxtlar, daryo yoki dengizlar qirg'oqlarining tuzulishi va boshqa ko'plab ob'ektlarning tuzulishi qonuniyatini ifodalovchi formulalar mavjud emas. Ayniqsa , bunday ob'ektlarning o'lchami haqida biror narsa aytish ham qiyin. Evklid geometriyasi va topologiyada butun o'lchamlarga ega bo'lgan ob'ektlar bilan ish ko'riladi. Ammo , yuqorida sanab o'tilgan ob'ektlar kasr o'lchamli ob'ektlardir. Masalan , odam qon aylanish sistemasi o'lchami fraktal o'lchov bo'lib, u 2,7 ga tengligi aniqlangan. Bu kabi murakkab tuzulishga ega bo'lgan ob'ektlar modellarini yaratishda algebra va geometriyaning an'anaviy usullaridan foydalanib , ishonchli natijalarga erishib bo'lmaydi. Shuning uchun ob-havoning oldindan qanday bo'lishini qo'qqisidan yuz beradigan o'zgarishlarni , dengiz va okeanlarda bexosdan paydo bo'ladigan to'lqinlarning paydo bo'lish sabablarini, iqtisodiyot sohasidagi keskin o'zgarishlar va hatto biror jamiyatda yashayotgan odamlar ijtimoiy ahvolini yaxshilash chora-tadbirlarini rejalashtirish

kabi ishlar to hozirga qadar to'liq o'z echimini topgan emas. Bu kabi masalalarni hal qilishda fraktallardan foydalanib yaxshi natijalarga erishish mumkin ekanligi aniq misollar yordamida amalda isbotlangan yoki ko'pchilik ob'ekt va hodisalarda qandaydir matematik qonuniyat borligi taxmin qilinmoqda.

Bitiruv ishi aynan shunday masalalarni hal qilish maqsadida ularning dasturini yaratish, amaliyotda fraktallardan foydalanishdan iborat.

1- bob. Fraktal tushunchasi.

1.1. Fraktallarning paydo bo'lish tarixi.

Fraktal atamasi 1975-yil Benua Mandelbrot tomonidan fanga kiritildi. Fraktal so'zi inglizcha **fractus** so'zidan olingan bo'lib, tarjimasi kasr degan ma'noni anglatadi. Fransuz matematigi Benua Mandelbrot 1958 yilda IBM ilmiy-tekshirish markaziga ishga o'tadi. Ushbu kompaniada ishlash jarayonida kunlar o'tishi bilan B.Mandelbrot kompaniyaning amaliy xarakterdagi muammolaridan butunlay chetlashib, bir vaqtning o'zida lingvistika, o'yinlar nazariyasi, iqtisodiyot, aeronavtika, geografiya, fizika, fiziologiya muammolari bilan ham shug'ullana boshladi. Benua Mandelbrot faqat bir soha bilan emas, balki har xil sohalar bilan shug'ullanishni yoqtirar edi. U bu davrda iqtisodiyot sohasi bilan shug'ullanar ekan, narsalar bahosining tebranish jarayoni matematika va fizikada mavjud bo'lgan hech bir qonuniyatga bo'ysunmaganligi tufayli mavjud standart egri chiziqlar bilan ifodalanmasligini tushundi. Ammo shu bilan birgalikda yillar davomida narsalar bahosining o'zgarishida qandaydir matematik qonuniyat ham borligini sezib qolda. U bir asrdan ortiq vaqt davomida paxta harxining o'zgarish statistik ma'lumotlarini olib, kompyuterda ma'lum dastur asosida tekshirganda bahoning qisqa va uzoq vaqt mobaynidagi tebranishlarida simmetriya borligini aniqlay oldi. Bu iqtisodiyot fani namoyondalari uchun kutilmagan yangilik edi. Bunda Benua Mandelbrot o'zining dastlabki, endi paydo bo'layotgan fraktal usulini qo'llagan edi. Endi fraktal so'zi qanday ma'noni anglatadi degan savolga javob beramiz[5,7].

Fraktal so'zi rus tilida **samapodobiya**, yani o'z-o'ziga o'xshashlik degan ma'noni anglatadi. Bu degani ixtiyoriy ob'ekt (narsa va hatto hodisa) ning ixtiyoriy bo'lagi (qismi) shu narsaning o'ziga o'xshash demakdir[6].

Masalan, kesmaning ixtiyoriy bo'lagi o'ziga o'xshaydi, daraxt shoxi tuzilishi o'ziga o'xshaydi, daryo irmoqlari ham o'ziga o'xshaydi, geometrik progressiya o'zining dastlabki bir nechta hadlarini tashlab yuborgandan keyin qolgan qismi yana geometrik progressiya bo'ladi.

Misollar keltiramiz:

1) **Kantor to'plamlari.** Endi $\Delta_0 = [0,1]$ segmentni olib, uning ustida quyidagi amallarni bajaramiz.

Avval bu segmentni $\frac{1}{3}$ va $\frac{2}{3}$ nuqtalar bilan uch qisimga bo'lib, undan uning o'rta qismi bo'lgan $(\frac{1}{3}, \frac{2}{3})$ oraliqni chiqarib tashlaymiz. Natijada $\Delta_{00} = [0, \frac{1}{3}]$ va $\Delta_{01} = [\frac{2}{3}, 1]$ segmentlar hosil bo'ladi. Bu segmentlarning har birini yana uch qisimga bo'lamiz hamda ularning o'rta qisimlari bo'lgan $(\frac{1}{9}, \frac{2}{9})$ va $(\frac{7}{9}, \frac{8}{9})$ oraliqlarni chiqarib tashlaymiz. Natijada $\Delta_{000} = [0, \frac{1}{9}]$, $\Delta_{001} = [\frac{2}{9}, \frac{1}{3}]$, $\Delta_{010} = [\frac{6}{9}, \frac{7}{9}]$, $\Delta_{011} = [\frac{8}{9}, 1]$



segmentlar hosil bo'ladi. Bu segmentlarning har birini yana teng uch qisimga bo'lib, mos ravishda o'rta qisimlari bo'lgan 4 ta oraliqni chiqarib tashlaymiz; natijada 8 ta segment hosil bo'ladi. Bu jarayonni cheksiz davom ettiramiz. k – amal natijasida 2^k ta segment hosil bo'ladi. Ularni $\Delta_{i_1, \dots, i_k}$ orqali belgilaymiz (bunda $i_s = 0, 1; s = \overline{1, k}$).

Natijada $\Delta_0 = [0, 1]$ segmentdan ushbu

$$G_0 = \left(\frac{1}{3}, \frac{2}{3}\right) \cup \left\{ \left(\frac{1}{9}, \frac{2}{9}\right) \cup \left(\frac{7}{9}, \frac{8}{9}\right) \right\} \cup \left\{ \left(\frac{1}{27}, \frac{2}{27}\right) \cup \left(\frac{7}{27}, \frac{8}{27}\right) \cup \left(\frac{19}{27}, \frac{20}{27}\right) \cup \left(\frac{25}{27}, \frac{26}{27}\right) \right\} \cup \dots$$

ochiq to'plam chiqarib tashlangan bo'ladi. Buning natijasida

$$P_0 = \Delta_0 \setminus G_0 \quad \text{to'plam mukammal to'plam bo'ladi.}$$

1-teorema. P_0 to'plam sanoqsizdir.

Isbot. P_0 to'plam sanoqli bo'lsin, deb faraz qilaylik; u holda P_0 to'plam

$$\{x_1, x_2, \dots, x_n, \dots\} \quad (1)$$

Ko'rinishdayoziladi. Bunda ikki hol bo'ltshi mumkin: x_1 nuqta yo Δ_{00} da, yoki Δ_{01} da yotadi ($\Delta_{i_1, i_2, \dots, i_k}$ segmentlar yuqorida kiritilgan); x_1 nuqta yotmagan Δ_{0i}

segmentni σ_1 bilan belgilaymiz. σ_1 ga kiruvchi hamda x_2 ni o'z ichiga olmagan Δ_{0ij} segmentni σ_2 bilan belgilaymiz va hokozo. Natijada bir –birining ichiga joylashgan hamda n-si x_2 nuqtani o'z ichiga olmagan

$$\sigma_1, \sigma_2, \dots, \sigma_n, \dots$$

segmentlar ketma- ketligiga ega bo'lamiz. Bu segmentlarning umumiy qismi bo'sh emas hamda P_0 to'plamning yasaliishiga ko'ra bu umumiy qism P_0 ga tegishli. Demak, umumiy qismning barcha elementlari (1) ketma- ketlikda uchrashi kerak, umumiy qismning y elementi (1) ketma- ketlikda n-o'rinda uchrasin, ya'ni $y = x_n$. Ammo σ_n ning yasaliishiga ko'ra x_n nuqta σ_n ga kirmaydi, demak, umumiy qismga ham kirmaydi. Ziddiyat kelib chiqadi.

Endi G_0 va P_0 to'plamlar elementlarining arifmetik xossasini beramiz. Buning uchun sonlarning uchli kasr shaklida yozilishiga murojaat qilamiz.

Ma'lumkib, (0,1) segmentdagi har bir sonni quyidagi uchli kasr shaklida yozish mumkin:

$$0, a_1 a_2 \dots a_n \dots (a_i = 0, 1, 2; i = 1, 2, \dots).$$

Lekin $\frac{i}{3^k} (i = 1, 2; k = 1, 2, \dots)$ ko'rinishdagi sonlarni (ya'ni yuqoridagi amallarni bajarishdagi bo'lish nuqtalariga mos sonlarni) uchli kasr sifatida ikki xil ko'rinishda yozish mumkin:

$$\frac{1}{3^k} = \begin{cases} 0, \underbrace{0\dots 0}_{k-1} 1 0000\dots \\ 0, \underbrace{00\dots 0}_k 2222\dots \end{cases} \quad (2)$$

$$\frac{2}{3^k} = \begin{cases} 0, \underbrace{0\dots 0}_{k-1} 2 00\dots \\ 0, \underbrace{0\dots 0}_{k-1} 1 222\dots \end{cases}$$

Bu ikki ko'rinishdan bir raqami uchramaydiganini qabul qilamiz. Boshqa har qanday son uchli kasr shaklida birgina ko'rinishda yoziladi.

Yuqoridagi amallarni bajarishda $\Delta_0 = [0,1]$ segmentdan $(\frac{1}{3}, \frac{2}{3})$ oraliqni olib tashlagan edik; ya'ni birinchi amal natijasida $[0,1]$ segmentdan shunday sonlar olib tashlandiki, ularning uchli kasr shaklidagi birinchi uchli raqami birga teng, ikkinchi amal bajarganimizda $\Delta_{00} = [0, \frac{1}{3}]$ va $\Delta_{01} = [\frac{2}{3}, 1]$ segmentlardan tegishlicha $(\frac{1}{9}, \frac{2}{9})$, $(\frac{7}{9}, \frac{8}{9})$ oraliqlarni olib tashlagan edik, ya'ni ikkinchi amal natijasida shunday sonlar olib tashlanadiki, ularni uchli kasr shaklida yozganimizda ikkinchi uchli raqami birga teng bo'lar edi va hokozo. k- amal bajarish natijasida $[0,1]$ segmentdan shunday sonlar olib tashlanadiki, ularni uchli kasr shaklida yozganimizda k-uchli uchli raqam birga teng bo'ladi. Demak yuqoridagi amallarni bajarish natijasida $[0,1]$ segmentdan birorta uchli raqami birga teng bo'lgan hamma sonlar chiqarib tashlangan bo'ladi.

Agar $[0,1]$ segmentdan olingan olingan ixtiyoriy x sonning biror uchli kasr raqami birga teng bo'lsa, u G_0 to'plamga kiradi, aks holda u son P_0 to'plamga kiradi, ya'ni P_0 to'plamga kirgan sonlarning uchli raqamlari faqat 0 va 2 dan iborat.

1-teoremadan aniqroq bo'lgan quyidagi teorema o'rinli.

2- teorema. P_0 to'plam kontinuum quvvatga ega.

Isbot. $[0,1]$ segmentdagi har bir sonni o'nli kasrga yoyish mumkin bo'lganidek, segmentdagi har bir sonni ikkili kasrga yoyish mumkin:

$$x = 0, i_1 i_2 \dots i_n \dots; i_s = 0, 1$$

Aksincha, bu ko'rinishdagi har bir ikkili kasrga $[0,1]$ dagi bitta son mos qo'yish mumki. O'nli kasrdagi kabi $[0,1]$ dagi $\frac{N}{2^k}$ ko'rinishdagi sonlar ikki usul bilan, qolgan sonlar esa bir usul bilan ikkili kasrga yoyiladi.

Ikkinchi tamondan, yuqorida ko'rsatilgandek, P_0 to'plamning har bir elementini quyidagi uchli kasr shaklida yozish mumkin:

$$\xi = 0, j_1 j_2 \dots j_n \dots; j_s = 0, 2$$

Aksincha, bu ko'rinishdagi har bir ikkili kasrga P_0 ning bitta nuqtasi mos keladi; P_0 dagi $\frac{N}{3^k}$ nuqtalar ikki usul bilan, qolgan nuqtalar esa bir usul bilan ikkili kasrga yoyiladi.

Endi $[0,1]$ segment bilan P_0 orasida o'zaro bir qiymatli moslikni o'rnatamiz; $[0,1]$ segmentdan ikkili kasr shaklida yozilgan

$$x = 0, i_1 i_2 \dots i_n \dots$$

Nuqtani olib, unga P_0 to'plamning quyidagi elementini mos qo'yamiz

$$\xi = 0, j_1 j_2 \dots j_n \dots,$$

bu yerda $j_s = 0$, agar $i_s = 0$ bo'lsa va $j_s = 2$, agar $i_s = 1$ bo'lsa. Bunda, $[0,1]$ segment kontinuum quvvatga ega bo'lgani uchun P_0 to'plamning ham kontinuum quvvatga egaligi kelib chiqadi.

$$2) \dots \frac{1}{27}; \frac{1}{9}; \frac{1}{3}; 1; 3; 9; 27; \dots \quad \text{ketma-ketlikni } 3 \text{ ga ko'paytirsak, } \dots \frac{1}{9};$$

$$\frac{1}{3}; 1; 3; 9; 27; 81; \dots \quad \text{ketma-ketlikka ega bo'lamiz. Bu esa dastlabki ketma-}$$

ketlikning aynan o'zi. Bunda ketma-ketlik masshtabini 3 marta kattalashtirdik. Agar bu ketma-ketlikni 3 ga karrali son marta kattalashtirsak yoki kichraytirsak ketma-ketlikning o'zi hosil bo'laveradi, shuningdek daraxtning bir shoxini 10 marta yoki 20 marta kattalashtirsak, balki berilgan daraxtning o'zi hosil bo'ladi yoki daraxtni 1:10 yoki 1:20 masshtabda kichraytirsak o'sha shoxi hosil bo'ladi.

3) $1; 2; 4; 8; 16; 32; \dots; 2^n; 2^{n+1}; \dots$ progressiyaning dastlabki 3 ta hadini tashlab yuborsak, $8; 16; 32; 64; \dots; 2^n; 2^{n+1}; \dots$ kabi ketma-ketlik ham progressiya bo'ladi va u dastlabkisini 8 ga ko'paytirishdan hosil bo'ladi yoki oxirgisini 8 ga bo'lsak dastlabkisi hosil bo'ladi. Xuddi shuningdek, geometrik progressiyaning dastlabki n ta hadini tashlab yuborishdan hosil bo'lgan progressiya dastlabkisiga o'xshash. Ya'ni progressiyaning qismi o'ziga o'xshash.

4) Leonardo da Vinci daraxtning ma'lum balandligidagi jami shoxlarini kessak, kesimlarda hosil bo'lgan doirachalar yuzlari yig'indisi pastdagi kunda kesimi yuziga teng bo'lishini aytgan edi. Bunday misollar juda ko'plab keltirish mumkin. Agar kim fraktallar bilan biror marta qiziqib ko'rsa, u albatta o'ta chiroyli va sirli geometrik ob'ektlar bilan tanishib, favqulodda qiziqarli ilmiy hodisaga duch kelganligini sezadi[11].

B. Mandelbrot o'zining "Tabiatning fraktal geometriyasi" nomli asarida fraktal tushunchasining mohiyatini ochish maqsadida "Britaniyaning qirg'og'i uzunligi qanday?" degan savolni qo'yib, unga javob berish jarayonida ajoyib xulosaga kelgan. Bunda qirg'oqning uzunligi uni nima bilan qanday o'lchashga juda bog'liq ekan. Agar biz o'lchayotgan asbob 1 km lik chizg'ich bo'lsa, qirg'oqning uzunligi qandaydir n km chiqishi tayin. Lekin bunda qirg'oqning egri-bugri joylari, yarim orolchalari tufayli hosil qilingan qirg'oq qismlari uzunliklari qolib ketadi. Agar 100 m lik chizg'ich bilan o'lchaganimizda esa Britaniya qirg'og'ining uzunligi qandaydir m km chiqadi va tabiiyki, $m > n$ bo'ladi. Chunki 100 m lik chizg'ich bilan o'lchanganda egri-bugri joylari ham km lik chizg'ich bilan o'lchanganga qaraganda ancha yuqori aniqlikda o'lchanishi oqibatida m soni n sonidan bir necha marta katta chiqib ketishi ham mumkin. Shuningdek, 10 m, 1m, 1dm, 1cm lik chizg'ichlar bilan o'lchasak, Britaniya qirg'og'i uzunligi yanada o'sa borishi tabiiy. 1 mm va undan ham kichik bo'lgan uzunlik birliklarini tanlab o'lchay boshlasak, Britaniya qirg'og'i uzunligi cheksiz o'sib boraveradi degan xulosaga kelamiz. Bu jarayon fraktal haqida yaqqol tasavvur hosil qilish uchun yaxshi misoldir[6].

Demak, fraktal tushunchasi ixtiyoriy ob'ektning qismi (bir bo'lagi) o'ziga o'xshash degan fikrga asoslanar ekan. Yuzaki qaraganda bu fikr juda katta ahamiyatga ega emasdek tuyulsada aslida kutilmagan darajada natijalar berishiga tezda ishonch hosil qilamiz.

Tabiatdagi haddan tashqari ko'p narsa, hodisa va voqealar fraktal formaga yoki fraktal tuzilishiga ega. Hatto kelajakda ta'lim jarayoniga ham fraktal yondashish ro'y berishi aniq. Hozirgi paytda fraktallar matematika, fizika,

bioloiya, ximiya, iqtisodiyotga kirib kelmoqda. Chunki bu fanlarda kesma yoki geometrik progressiyada bo'lgani kabi o'z qismiga yoki qismining o'xshash bo'lish hollari nihoyatda ko'p.

Masalan, iqtisodiyot sohasini olaylik. Bir tuman, yoki bir viloyat miqyosidagi iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari darajasi butun davlat miqyosidagi rivojlanish darajasi bilan bir xil bo'ladi. Iqtisodiyot sohasida qilingan biror o'zgarishni fraktallardan foydalanib butun davlat yoki biror hudud miqyosida qanday ijobiy yoki salbiy oqibatlarga olib kelishini oldindan aniqlash mumkin bo'ladi (xuddi geometrik progressiyaga o'xshab) va bu ishlab chiqarishni oldindan aniq rejalashtirish imkoniyatini beradi.

Hozirgi paytda fraktal geometriya deb nomlanuvchi geometriya bo'limi rivojlanmoqda. Fraktal geometriya Evklid geometriyasidan yoki topologik fazo tushunchalaridan farq qiladi. Evklid geometriyasi bo'yicha hajm 3 o'lchovli, yuza ikki o'lchovli, chiziqli yoki kesma bir o'lchovli va nuqta nol o'lchovli deb qaraladi. Lekin, Evklid geometriyasida 1,3 o'lchov, 2,5 o'lchov kabi o'lchovlar mavjud emas.

Borliqqa fraktal geometriya nuqtai nazari bilan qarash Evklid geometriyasi nuqtai nazari bilan qarashdan keskin farq qiladi. Evklid geometriyasi Pifagor, Aristotel va boshqalar tomonidan asos solingan butun o'lcham yoki sonli o'lchov tushunchalariga tayanadi. Chunki qadimgi grek falsafasida ma'lum bir qonuniyatga bo'ysunmaydigan tartibsiz olamdan biror qonuniyatga bo'ysunadiganlarini ajratib olib o'rganish taraqqiyot mezonini sifatida qaralgan. Shuning uchun Evklid geometriyasida hamma narsalar nuqtalardan tashkil topganligi to'g'ri qayd qilingan. Lekin, barcha narsalarni taqriban silliq (ikki o'lchovli sirt) yoki to'liq, bo'shliqlarsiz to'lgan (uch o'lchovli fazodagi jismlar) deb qarash noto'g'ri. Boshqacha qilib aytganda Evklid geometriyasi simmetriya va butunlikka tayanadi. Bizni o'rab turgan olam esa to'liq simmetriyani inkor qiladi. Har qanday ob'ektni chuqurroq o'rgansak, uning yangi-yangi qirralari ochilaveradi. Bu qirralarini ochishda Evklid geometriyasidagidek, butun 0;1;2;3;... o'lchamlar etarli

bo'lmaydi. Masalaning bunday tomonlarini fraktallardan foydalanib hal qilish mumkin.

Fraktal geometriyada kasr o'lchamlar ham bor. Masalan, bir varaq qog'oz 2 o'lchovga ega. Lekin uni g'ijimlab dumaloq shaklga keltirilsa, uni necha o'lchovli deb qarash kerak? Chunki ma'lum hajmga ega bo'lgan jism o'zi egallab turgan joyni to'liq to'ldiradi deb tushuniladi (Evklid geometriyasida). Masalan, shar, kub, parallelopid,... Ammo g'ijimlangan qog'oz fazoda joy egallasa ham o'zi egallab turgan joyni to'liq to'ldirmaydi, orasida bo'shliqlar ham qoladi. Agar uni qattiq presslasak, uning o'lchami uch o'lchamga yaqinlashadi, lekin baribir aniq uch o'lchamga ega bo'lmaydi. Chunki baribir bo'sh joylar qoladi. Shuning uchun g'ijimlangan qog'oz o'lchamini aniqlash masalasi bilan fraktal geometriya shug'ullanadi. Bu o'lcham albatta kasr son bilan ifodalanishi kerak va bu o'lcham albatta uch o'lchamdan kichik bo'ladi.

Tabiatda juda ko'p narsalar aniq bir, ikki yoki uch o'lchamli emas. Chunki ularning ichida bo'shliq va havoli joylar bor. Masalan, qovun, yog'och, to'p, kiyim-kechak, non, ma'lum hududdagi tuman, tufli, etik, ingichka shlang ... lar aslida uch o'lchamli emas, ip yoki sim to'r, yoyib qo'yilgan mato, tekis sirtga yoyilib turgan suv yoki yog' 2 o'lchovli emas. Lekin Evklid geometriyasida narsaning o'lchami $D > 1$ bo'lsa uni ikki o'lchovli deb, $D > 2$ bo'lsa, uni uch o'lchovli deb olish qabul qilingan bo'lib, aslida bu fikr to'g'ri emas. Ya'ni narsaning aniq o'lchovini bildiruvchi kasr o'lchamlar ham bo'lishi kerakligini fraktal geometriya tasdiqlaydi.

Bunda D harfi bilan o'lchov belgilandi.

Ushbu fikrlardan kelib chiqqan holda ishonch bilan aytish mumkinki, fraktal geometriya – bu tabiat geometriyasidir. Shuning uchun fraktal geometriya yoki umuman fraktallarining kashf qilinishi nafaqat matematika fanida, balki barcha fanlar rivoji uchun, kompyuter texnologiyalari, kompyuter grafikasi rivojlanishi uchun juda katta turtki bo'ldi. Demak fraktallarni tadqiq qilish, chuqurroq o'rinish tabiat va jamiyatning, hali inson aqli yetmagan qirralarini, ularda mavjud bo'lgan o'zaro bog'lanish va qonuniyatlarini aniqlash imkoniyatini beradi.

Hozirgi paytda fraktallar fizika, biologiya, iqtisodiyot, informatika, matematika, medetsina kabi fanlarning tadqiqot obyektlaridan biriga aylanish bilan birgalikda bu fanlarning rivojlanishiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

1.2. Fraktallarning o'lchamlari.

Fraktal tuzilishga ega bo'lgan ob'ektlarning o'lchamini aniqlashdan oldin bizga Evklid geometriyasidan ma'lum bo'lgan o'lchamlarni aniqlash masalasi bilan tanishamiz. Evklid geometriyasida nuqtaning o'lchami $D=0$, ixtiyoriy to'g'ri yoki egri chiziqlarning o'lchami $D=1$. Chunki bir o'lchovli ob'ektning chiziqli o'lchamini ikki marta orttirsak uning o'lchami ham ikki marta ortadi, ya'ni uning o'lchami 2^1 marta ortadi.

Ixtiyoriy sirtning, ya'ni nafaqat tekis sirt, balki sfera kabi egri sirtlarning ham o'lchami ikkiga teng. Bu avvalam bor ikki o'lchovli ob'ektning ixtiyoriy nuqtasi ikkita son bilan, ya'ni koordinatalari bilan xarakterlanishidan kelib chiqsa, ikkinchidan ikki o'lchovli ob'ektning chiziqli o'lchamlari ikki marta orttirilsa, ob'ekt o'lchami ham 2^2 marta ortadi.

Shuningdek, uch o'lchamli ob'ektning chiziqli o'lchovlari ikki marta orttirilsa, ob'ekt o'zining o'lchamlari 2^3 marta ortadi. Endi ob'ektning necha o'lchamli ekanligi qanday topiladi degan savolga javob beramiz. Matematik nuqtai-nazaridan ob'ektning o'lchamini topish uchun quyidagicha amallar ketma-ketligini bajarish yetarli. Faraz qilaylik ob'ekt ikki o'lchamli, uning chiziqli o'lchamlarini n marta orttiraylik. U holda ob'ekt o'lchami n^2 marta ortadi. Ob'ekt o'lchovini topish uchun $\log(n^2)$ ning $\log(n)$ ga nisbatini olish yetarli. Ya'ni ob'ektning chiziqli o'lchamlari k marta ortganda ob'ekt o'lchamlari m marta ortsa, ob'ektning o'lchovi $\log k^m$ yoki $\log(m)/\log(k)$ ga teng bo'ladi. Masalan, bir o'lchovli ob'ektning chiziqli o'lchovi ikki marta ortganda o'zining o'lchami ham 2^1 marta ortadi. Demak,

$$D = \frac{\log(2^1)}{\log_2} = 1;$$

Ikki o'lchovli ob'ektning chiziqli o'lchamlari ikki marta orttirilsa o'zining o'lchamlari 2^2 marta ortadi. U holda

$$D = \log_2 2^2 = 2$$

Ob'ektning chiziqli o'lchamlari albatta butun son marta ortishi shart emas. Uch o'lchovli ob'ekt, masalan, parallelopipedning chiziqli o'lchamlari 2;4;6 ga teng bo'lsin. Uning hajmi $V=48$ bo'ladi. Har bir chiziqli o'lchamini 1.5 marta orttirsak, chiziqli o'lchamlarining yangi qiymatlari 3;6 va 9 ga teng bo'ladi. Endi parallelopipedning hajmi $V_1 = 3 \cdot 6 \cdot 9 = 162$ ga teng. $k = 1.5$; $m = 1.5^3 = 3.375$; ekanligini inobatga olsak, $D = \log_{1.5} 3.375 = 3$. Haqiqatan, $48 \cdot 1.5^3 = 48 \cdot 3.375 = 162$.

Endi fraktal tuzulishga ega bo'lgan Kox egri chizig'ining o'lchovini topamiz. Ma'lumki, Kox ixtiyoriy uzunlikka ega bo'lgan kesmani teng uch bo'lakka bo'lib, o'rtadagi bo'lak kesmani unga aynan teng bo'lgan ikkita kesma bilan almashtiradi. Faraz qilaylik, dastlabki kesma uzunligi 9 birlikka teng bo'lsin. U holda har bir bo'lak kesmaning uzunligi 3 birlikka teng bo'ladi. Birinchi qadamdan keyin hosil bo'lgan siniq chiziqning uzunligi 12 birlik bo'lishi aniq. Ya'ni har bir keyingi qadamda har bir kesmaning uzunligi o'zining $1/3$ qismi qadar orta boradi. Agar qadamlar sonini cheksiz ko'p marta takrorlasak, cheksiz uzunlikka ega bo'lgan Kox egri chizig'i hosil bo'ladi va u qanqaydir sirtini qoplaydi. Ana shu sirtning o'lchovini topamiz.

Birinchi qadamdan keyin siniq chiziqning uzunligi 12 ga teng bo'ldi. Endi siniq chiziqning har bir bo'g'ini uzunligi dastlabki kesma uzunligiga (9 birlikka) teng bo'lishi uchun $k=3$ marta orttiramiz. U holda siniq chiziqning uzunligi 36 birlikka teng bo'lib, dastlabki kesmaning uzunligidan $m=4$ marta ortadi. Demak, Kox egri chizig'i o'lchovi $D = \log_3 4 = 1.2619...$ ekanligi kelib chiqadi. Kox egri chizig'i o'lchami 1 dan katta. Ammo o'lchami 1 dan kichik ob'ektlar ham bor. Shuning uchun bunday ob'ektlarga nisbatan iteratsiyani cheksiz davom ettirganda o'lchami nolga intiladi. Masalan, Kontor changi bunga misol bo'la oladi.[15]

Ma'lumki , Kontor har bir iteratsiya (qadam) da ma'lum uzunlikdagi kesmani teng uch bo'lakka bo'lib , o'rtadagi kesmani tashlab ketaveradi. Har bir iteratsiyada berilgan kesmaning uzunligi $1/3$ qismicha kamaya boradi.

Cheksiz qadamlardan keyin qolayotgan kesmalar uzunligi nolga intiladi. Ammo ular butunlay yo'qolib ketmasdan nuqtalarga aylanib , bitta emas , balki cheksiz ko'p nuqtalarni tashkil qiladi va ular birgalikda qandaydir o'lchovga ega bo'lgan sirtini qoplaydi.

Faraz qilaylik kesmaning dastlabki uzunligi 6 birlikka teng bo'lsin. Birinchi qadamda hosil bo'lgan kesmalar uzunliklari yig'indisi 4 ga teng bo'ladi. Endi kesmalarning har birining uzunligi dastlabki kesmaga teng bo'lishi uchun $k=3$ martadan orttiramiz. U holda kesmalar uzunliklari yig'indisi 12 ga teng bo'lib, dastlabki kesmadan $m=2$ marta uzun bo'lishi aniq. Demak, Kontor changi o'lchovi $D = \log_3 2 = 0.6309$.

Fraktal tuzulishga ega bo'lgan har bir ob'ekt o'z o'lchoviga ega bo'lib , uni yuqoridagi usul yordamida hisoblab topish mumkin.

2- bob. Geometrik fraktallarning algoritm va dasturlari

2.1. Geometrik fraktallar.

Fraktal tushunchasining o'zi geometrik fraktallarni hosil qilish bilan paydo bo'ldi. Geometrik fraktallarni hosil qilish jarayoni quyidagicha:

Biror geometrik figura , masalan, kesma , uchburchak , to'rtburchak , ... figuralardan biri tanlanadi. So'ngra shu figuraga yoki uning biror qismiga nisbatan qandaydir almashtirish qo'llanadi. Almashtirish deyilganda o'sha geometric figura yoki uning qismini tayin bir qoyida asosida o'zgartirish tushuniladi. Keyingi qadamlarda esa o'zgartirilgan qismlar uchun birinchi qadamda figura yoki uning qismida o'zgarish qilishda qo'llangan qoida ketma- ket qo'llanib ketilaveradi. Natijada qadamdan –qadamga o'tgan sayin berilgan geometrik figura ko'rinishi birinchidan , murakkab tuzilishga ega bo'lib boraversa , ikkinchidan har qanday odamning diqqatini o'ziga jalb qila oladigan darajada chiroyli ko'rinishni ham ola boradi. Bu jarayon biror chekli qadamlardan keyin to'xtamasa, ya'ni qadamlar soni cheksiz davom etsa, hosil bo'lgan figura geometrik fraktal bo'ladi. Albatta qadamlar sonini amalda cheksiz davom ettirishning iloji yo'q. Ammo, ma'lum qadamlardan so'ng hosil bo'layotgan geometrik fraktalning keyingi qadamlardagi ko'rinishini yaqqol tasavvur qilish mumkin.

Geometrik fraktallarni qo'ldan chizib , yaratish kutilgan yaxshi natijalarni bermasligi mumkin. Chunki qo'lda chizish jarayonida har bir qadamda 0,5 mm dan xatolik ketsa ham besh- o'n qadamdan keyin geometrik fraktalda kutilmagan o'zgarishlar bo'la boshlaydi. Masalan, biror tomonga qiyshayib, og'a boshlaydi. Ikkinchidan, qo'lda chizish yo'li bilan qadamlar sonini ko'paytirib bo'lmaydi. Chunki chizilayotgan chiziqlar juda maydalashib ketadi va keyingi qadamlarga o'tishning iloji bo'lmay qoladi. Shuning uchun geometrik fraktallarni kompyuterda yaratish ancha yaxshi natijalar beradi. Negaki, kompyuter ko'z ilg'amas darajadagi mayda to'g'ri yoki egri chiziqlarni ham chiza oladi. Aslida geometrik fraktal haqidagi fikrlar XIX asrdayoq paydo bo'lgan (masalan, Kontor changi bunga misol bo'la oladi) bo'lsa ham XX asrning o'rtalarigacha , ya'ni kompyuterlar

yaratilguncha fraktal tushunchasi olimlar dunyosida kuchli qiziqish uyg'otmadi. Faqat kompyuterlar yaratilgandan keyingina ma'lum bir dastur asosida o'ta maftunkor geometrik fraktallar yaratildi. Uining maftunkorligi shunda ediki, kompyuterda yaratilayotgan geometrik fraktallar uchun har xil ranglar jilosidan ham foydalanish mumkin.


Fraktal "OTASI" deb nom olgan Benua Mandelbrotning ham bu sohaga qiziqib qolishida kompyuter katta ahamiyatga ega bo'lgan. Geometrik fraktal qandaydir geometrik figurani tashkil qiladi. Lekin, bu figuraning har bir qismi oldingisidan qandaydir geometrik almashtirish natijasida hosil bo'ladi.

Shunday qilib geometrik fraktal shunday geometrik figuraki, uning har bir qismi (bo'lagi) o'ziga o'xshaydi va aksincha fraktalning o'zi qismiga o'xshaydi. Ushbu fikrlarni tushunishni osonlashtiradigan, sodda, ya'ni ommabop fraktallar yaratilgan bo'lib, ularning mohiyati, yaratilish sxemasini tushunish uchun chuqur bilimga ega bo'lish shart ham emas[6,9,26].

2.2. Kox egri chizig'i.

Shunday fraktallardan biri shved matematigi Gelge fon Kox tomonidan yaratilgan bo'lib, "Kox egri chizig'i" deb nom olgan. Kox egri chizig'ini hosil qilish jarayoni bilan tanishamiz.

Ixtiyoriy uzunlikdagi **AB** kesmani olib, **C va D** nuqtalarda teng uchta qismga bo'linadi (**1- rasm**).



1-rasm

CD kesmani asos qilib , teng tomonli uchburchak chiziladi va CD asosni olib tashlanadi. Natijada hamma bo'g'inlari teng bo'lgan ACEDB siniq chiziq hosil bo'ladi.


Ikkinchi qadamda AC, CE, ED, DB bo'g'ilarning har biri uchun yuqoridagi jarayonni takrorlaymiz. Ya'ni har bir bo'g'inni teng uch bo'lakka bo'lib, o'rtadagisini asos qilib, teng tomonli uchburchak chiziladi va o'sha asosi olib tashlanaveradi. Ikkinchi qadamdan keyin AMKNCLPFEQRS DTUXB siniq chizig'I hosil bo'ladi. Ushbu jarayonni cheksiz davom ettirsak hosil bo'layotgan siniq chiziqlarning bo'g'inlari shunchalik maydalashib ketadiki, go'yo siniq egri chiziqqa ega bo'lamiz. Shuning uchun bu yo'l bilan hosil bo'lgan siniq chiziq Kox egri chizig'i deyiladi. Ammo bu egri chiziq silliq emas. Chunki u aslida siniq chiziq bo'lib, hech bir nuqtasidan urinma o'tkazib bo'lmaydi. Ikkinchi qadamdan keyin hosil bo'lgan figuradagi AMKNC, CLPFE, EQRS D, DTUXB siniq chiziqlarning har biri birinchi qadam natijasi bo'lgan ACEDB siniq chizig'ining aynan o'zi bo'lib, faqat o'lchamlari 1:3 masshtab birligiga farq qiladi. Shuningdek, uchinchi qadamdan keyin AMKNC qismida ikkinchi qadamdan keyingi NCLPFEQRS D T siniq chiziqqa aynan o'xshash va undan 1:3 masshtabga farq qiluvchi bo'lak paydo bo'ladi. Gelge fon Kox o'zining bu egri chizig'ini hali kompyuterlar mavjud bo'lmagan 1904 yildayoq yaratgan edi.

E'tibor berib qaralsa, Kox egri chizig'ida ma'lum matematik qonuniyatlar borligini sezish mumkin. Masalan, ketma-ket qadamlar natijasida hosil bo'layotgan siniq chiziq bo'g'inlari soni geometrik progressiyani tashkil qilar ekan, ya'ni $1, 4, 4^2, 4^3, \dots, 4^n, \dots$

Endi siniq chiziq uzunligi qanday o'zgarayotganligini tahlil qilamiz. Agar AB kesma uzunligini 1 deb olsak, birinchi qadamdan keyin uning uzunligi $\frac{4}{3}$ ga , ikkinchi qadamdan keyin $\frac{16}{9}$ ga, uchinchi qadamdan keyin $\frac{64}{27}$ ga va hokazo n-qadamdan keyin $(\frac{4}{3})^n$ ga teng bo'lishining guvohi bo'lamiz. Demak, siniq chiziq uzunligi ham birinchi hadi $b_1=1$, maxraji $q=\frac{4}{3}$ bo'lgan geometrik progressiyani

tashkil qiladi. $|q| > 1$ bo'lganligi uchun $n \rightarrow \infty$ da siniq chiziq uzunligi ham cheksizlikka intiladi va qandaydir sirtni to'liq to'ldiradi. O'sha sirt qandaydir o'lchamga ega bo'lishi kerak. Ammo, bu sirt yassi emas. Shuning uchun Evklid geometriyasidagi o'lchovlarga to'g'ri kelmaydi. Ya'ni Kox egri chizig'i haqiqiy (differentiallashtiruvchi) egri chiziq emas. Demak, uning o'lchovi $D > 1$. Yassi emas, demak o'lchovi $D < 2$. Kox egri chizig'ining o'lchovini topish masalasi keyingi mavzuda batafsil berilgan va u $D = \log_3 4 = 1.2619 \dots$ ga teng [13,14].

Agar teng tomonli uchburchak olib, uning har bir tomoni uchun Kox egri chizig'ini hosil qilishda qo'llangan almashtirishlar ketma-ketligi qo'llansa Kox qor parchasi deb ataluvchi quyidagi geometrik fraktal hosil bo'ladi. **(2-rasm)**.



2-rasm

Ushbu rasmdan ham ko'rinib turibdiki, uning ixtiyoriy qismi o'zidan kattaroq qismiga yoki to'liq Kox qor parchasiga o'xshaydi. Tabiiyki, Kox qorining o'lchovi ham $D = \log(4)/\log(3) = 1.2619 \dots$ kabi bo'ladi.

Umuman fraktal tushunchasi, shuningdek, fraktal geometriya ham o'z navbatida fanlararo aloqadorlikni ta'minlash vositasi hamdir. Chunki tabiat va jamiyatda sodir bo'layotgan voqea, hodisalarning fraktallik xususiyatlarini o'rganish bitta fan doirasidan tashqariga chiqishi tabiiy. Quyidagi fraktalni yaratish jarayoni matematika va informatika fanlari orasidagi uzviy bog'lanish o'rnatilganda qanchalik chiroyli natijalar olish mumkin ekanligini yana bir bor isbotlaydi.


2.3. Levi egri chizig'i.

Levi egri chizig'ini hosil qilish jarayoni bilan tanishamiz. Yuqorida qayd qilinganidek, Levi egri chizig'ini hosil qilish jarayoni ham alohida bilim va tayyorgarlik talab qilmaydi. Uni tushunish uchun vektor tushunchasi va vektorlar ustida bajariladigan ba'zi amallarni bilish etarli. Masalan, vektorning koordinatalari, vektor bir uchining koordinatalari berilgan bo'lsa, ikkinchi uchining koordinatalarini topish kabi elementar tushunchalarni o'zlashtirish etarli. Levi egri chizig'ini kompyuter yordamida hosil qilish uchun biror dasturlash tilida ishlay olish ham kerak. Yoki tayyor matematik paketlardan, masalan, Mathcad dasturi imkoniyatlaridan foydalanish mumkin. Bunda quyidagi algoritm asosida ish yuritishga to'g'ri keladi:

1. Fraktal egri chiziqni hosil qilishning dastlabki ikki- uch qadamgacha bo'lgan jarayonni aniqlab olish;
2. Fraktal uchlarining koordinatalarini aniqlashga mo'ljallangan rekkurent formulani yaratib olish;
3. Dasturni yaratish va fraktalni yaratish ;

Ko'pchilik geometrik fraktallarni yaratish jarayoni kesma, uchburchak, kvadrat yoki to'g'ri to'rtburchak kabi oddiy geometrik figuralarni chizishdan boshlanadi. Bu figuralarni fraktallarni yaratish jarayonining nolinchi qadami yoki nolinchi elementi deyiladi. Levi egri chizig'ining nolinchi elementi Kox egri chizig'ida bo'lgani kabi kesmadan iborat. Shunday qilib ixtiyoriy uzunlikdagi **AB**


kesmani olamiz. **AB** kesmaning koordinata tekisligida qanday joylashishining ham ahamiyati yo'q (3-rasm) .



3-rasm


Birinchi qadamda **AB** kesmani gipotenuza qilib teng yonli to'g'ri burchakli **ACB** uchburchak chiziladi va gipotenuza **AB** olib tashlanadi. Natijada birinchi qadamdan keyin Levi egri chizig'i **ACB** sinig chizig'idan iborat bo'ladi. Ikkinchi qadamda **AB** kesma uchun qo'llangan algoritm **AC va CB** kesmalar uchun tadbiq qilinadi , ya'ni bu kesmalarni gipotenuza qilib teng yonli to'g'riburchakli uchburchaklar chiziladi va gipotenuzalar olib tashlanadi. Ikkinchi qadamdan so'ng Levi egri chizig'i to'rt bo'g'inli sinig chiziqdan iborat bo'ladi.

Uchinchi qadamda hosil bo'lgan to'rtta bo'g'inning har birini gipotenuza qilib to'g'ri burchakli uchburchaklar chizamiz va gipotenuzalarini olib tashlaymiz va hokazo bu jarayon cheksiz davom ettirilsa Levi egri chizig'i hosil bo'ladi. O'n beshinchi qadamda Levi egri chizig'ining ko'rinishi 3-rasmdagi ko'rinishni oladi.



4-rasm

Endi Levi egri chizig'ini hosil qilish algoritmining ikkinchi va uchinchi bandlarini keltiramiz. Demak, bu egri chiziqni chizish jarayonida kerak bo'ladigan rekkurent formulani topish zarur. Buning uchun ixtiyoriy uzunlikka ega bo'lgan **AB** kesmani gipotenuza qilib chizilayotgan teng yonli to'g'ri burchakli uchburchakning uchinchi **C** uchining koordinatalarini topish imkoniyatini beruvchi rekkurent formulani topish yetarli. Aynan shu maqsadda vektor tushunchasidan foydalanamiz. Ya'ni $\overline{AB}$ vektor uchlarining koordinatalari **$A(x_0; y_0)$** va **$B(x_1; y_1)$** bo'lsin. $\overline{AC}$ vektor koordinatalarini topish bilan **C** nuqtaning ham koordinatalarini topamiz.



5- rasm

To'g'ri burchakli teng yonli **ABC** uchburchakning **A, B, C** uchlari **AB** gipotenuzasining o'rtasi bo'lgan **O** nuqtadan teng uzoqlashgan nuqtalar bo'ladi. Ikkinchi tomondan **O** nuqta **ABC** uchburchakka tashqi chizilgan aylananing markazi ham bo'ladi.

ABC uchburchak teng yonli bo'lganligi uchun $\overline{OC} \perp AB$, demak, $\overline{OC} \perp \overline{AO}$ va $|\overline{OC}| = |\overline{AO}|$, shuningdek, $\overline{AC} = \overline{AO} + \overline{OC}$.

$\overline{AO}$ vektor koordinatalari $\overline{AO} = \frac{1}{2} \overline{AB}$ shartdan kelib chiqadi, ya'ni

$$\overline{AO} \left(\frac{x_1 - x_0}{2}; \frac{y_1 - y_0}{2} \right).$$

$\overline{AC}$ va $\overline{OC}$ vektorlarning tengligi va perpendikulyarligidan $\overline{OC}$ vektorning koordinatalarini aniqlash mumkin.

Faraz qilaylik $\bar{a}$ vektorning koordinatalari $(x_a; y_a)$ bo'lib $\bar{b}$ vektor $\bar{a}$ vektorga perpendikulyar va $|\bar{a}| = |\bar{b}|$ bo'lsin. $\bar{b}$ vektorning koordinatalari $(x_b; y_b)$ bo'lsin. $\bar{a}$ va $\bar{b}$ vektorlar perpendikulyar bo'lganligi uchun ularning skalyar ko'paytmasi nolga teng bo'lishi kerak, ya'ni $x_a x_b + y_a y_b = 0$.

Shuningdek, vektorlar uzunliklari teng bo'lganligi tufayli koordinatalarining kvadratlari yigindisi teng bo'ladi, ya'ni $x_a^2 + y_a^2 = x_b^2 + y_b^2$. Quyidagi tenglamalar sistemasiga ega bo'ldik.

$$\begin{cases} x_a x_b + y_a y_b = 0 \\ x_a^2 + y_a^2 = x_b^2 + y_b^2 \end{cases}$$

Sistemaning birichi tenglamasidan $\bar{b}$ vektorning abstsissasini uning ordinatasi orqali ifodalab, uni ikkinchi tenglamaga qo'yish yo'li bilan $\bar{b}$ vektorning ordinatasini topamiz.

$$\begin{cases} x_b = -\frac{y_a}{x_a} y_b \\ x_a^2 + y_a^2 = \frac{y_a^2}{x_a^2} y_b^2 + y_b^2 \end{cases}$$

Bir nechta murakkab bo'lmagan matematik almashtirishlardan keyin $\bar{b}$ vektorning koordinatalari topiladi. $\bar{b}$ vektorning koordinatalari $(-y_a; x_a)$ yoki $(y_a; -x_a)$ kabi bo'ladi. Aynan ushbu bayon qilingan algoritm asosida 4-rasmdagi $\overline{OC}$ vektorning

koordinatalarini topamiz . Bunda ikki hol bo'lishi mumkin. Agar $\overline{OC}$ vektor $\overline{OA}$ vektordan chapga yo'nalgan bo'lsa , uning koordinatalari $(-\frac{y_1 - y_0}{2}; \frac{x_1 - x_0}{2})$ kabi, o'ngga yo'nalgan bo'lsa, $(\frac{y_1 - y_0}{2}; -\frac{x_1 - x_0}{2})$ kabi bo'ladi.

Levi egri chizig'ini chizish uchun $\overline{OA}$ vektordan chapga yo'nalgan holi kerak. U holda C nuqtaning koordinatalari quyidagicha bo'ladi:

$$X = x_0 + \frac{x_1 - x_0}{2} - \frac{y_1 - y_0}{2} = \frac{x_1 + x_0}{2} - \frac{y_1 - y_0}{2};$$

$$Y = y_0 + \frac{y_1 - y_0}{2} - \frac{x_1 - x_0}{2} = \frac{y_1 + y_0}{2} - \frac{x_1 - x_0}{2};$$

$(x; y)$ $\overline{OC}$ vektorning C uchining koordinatalari. Ya'ni birinchi qadamda hosil bo'ladigan nuqtaning koordinatalari. Lekin, Levi egri chizig'ini chizishda cheksiz ko'p shunday nuqtalarning koordinatalarini topishga to'g'ri keladi va bu nuqtalarning barchasining koordinatalari bitta algoritm asosida topiladi. Shuning uchun hsr bir teng yonli to'g'ri burchakli uchburchak uchinchi uchining koordinatalarini topishda quyidagi rekkurent formuladan foydalanish mumkin.

$$X = \frac{x_n + x_{n-1}}{2} - \frac{y_n - y_{n-1}}{2};$$

$$Y = \frac{y_n + y_{n-1}}{2} - \frac{x_n - x_{n-1}}{2};$$

Bunda $(n-1)$ nchi nuqta A nuqtaga , n – nuqta esa B nuqtaga mos keladi[9,10].

3- bob. Algebraik fraktallarning algoritm va dasturlari.

3.1. Algebraik fraktallar.

Fraktal tushunchasining asoschilaridan biri bo'lgan Mandelbrot fraktallarining quyidagi xossalari alohida ta'kidlaydi:

1. Fraktallar kasr o'lchamga ega
2. Butun fraktal o'zining qismiga va aksincha biror qismi fraktalning o'ziga o'xshaydi.

Geometrik fraktallardan tashqari algebraik fraktallar ham mavjud. Agar ma'lum almashtirishlar natijasida biror shakl paydo bo'lishini hisobga olsak, algebraik fraktal degan nom ham shartli ekamligini tushunamiz. Chunki algebraik fraktallar natijasi ham ko'p hollarda biror ko'rinishdagi rasmdan iborat bo'ladi. Algebraik fraktallar algebraik formulalar yordamida hosil qilinganligi uchun algebraik fraktallar deyiladi. Natijasi biror shakldan iborat bo'lgan algebraik fraktallarni yaratishda tayin matematik amallar, formulalar ketma-ketligi ijro etilishi natijasida tekislikda yoki fazoda nuqta, kesma yoki biror figura hosil qilinadi va ma'lum parametrlarni o'zgartirib aynan o'sha formulaning qayta-qayta hisoblanishi oqibatida har safar unga mos figura hosil qilinaveradi. Takrorlanish jarayoni cheksiz davom ettirilsa algebraik fraktal hosil bo'ladi. Algebraik fraktalni kompyuterda hosil qilish uchun takrorlanish jarayonining dasturi tuzilishi lozim[17,20].


3.2. Mandelbrot to'plamlari.

Algebraik fraktalga misol sifatida Mandelbrot to'plamini hosil qilish jarayoni bilan tanishamiz. Mandelbrot to'plami kompleks tekislikda

$$Z_{n+1}=Z_n^2+c \quad (1)$$


almashtirish orqali amalga oshiriladi. Bunda o'zgaruvchi va $z=x+iy$, c esa o'zgarmas bo'lib $c=a+ib$. Mandelbrot to'plamini hosil qilishda kerak bo'ladigan matematik almashtirishlarni tushunish uchun kompleks sonlar ustida qo'shish, ayirish, ko'paytirish, bo'lish va darajaga ko'tarish amallarini bilish yetarli.

Ma'lumki, har bir kompleks songa tekislikda abstsissasi kompleks sonning haqiqiy qismiga, ordinatasi mavhum qismiga teng bolgan yagona nuqta mos keladi. Har bir qadamda bitta kompleks son hosil bo'ladi va tekislikda unga mos bitta nuqtani belgilash mumkin. Natijada hosil bo'lgan nuqtalar Mandelbrot to'plamini tashkil qiladi. Ushbu to'plamni hosil qilish jarayoni quyidagi algoritm asosida amalga oshiriladi. Dastlabki nuqta sifatida kompleks tekislikda $(x_0 ; y_0)$ nuqta hosil qilinadi. (1) formuladagi c parametrni o'zgarmas deb qabul qilamiz. (1) formulaga ko'ra birinchi qadamda $z_1=z_0^2+c$,
 ikkinchi qadamda $z_2=(z_0^2+c)^2+c$,
 uchinchi qadamda $z_3=z_2^2+c=((z_0^2+c)^2+c)^2+c$
 nuqtalar hosil qilinadi va hokazo. Mana shu nuqtalar to'plami Mandelbrot to'plamini tashkil qiladi. Bunda hosil bo'layotgan z_n nuqtalar kompleks tekislikda $(x_0 ; y_0)$ nuqta atrofida tartibsiz joylasha boshlaydi. Ba'zilar $(x_0 ; y_0)$ nuqtaga yaqin joylashsa, ba'zilar undan uzoqlasha boshlaydi. Shuning uchun Mandelbrot markazi $(x_0 ; y_0)$ nuqtada bo'lgan ma'lum radiusli, masalan, $R=2$ bo'lgan doira ichiga va undan tashqariga tushuvchi nuqtalarni aniqlashga harakat qildi. Buning uchun doira ichiga tushuvchi nuqtalarga qora rang berib, doiradan tashqariga tushuvchi nuqtalarga esa qadam rangiga teng nomerli ranglar berib ko'rdi. Albatta bu ishni kompyutersiz amalgam oshirish ancha mashaqqatli ish. Kompyuter bu takrorlanish jarayonini ma'lum dastur asosida bajarganda aniq shakl paydo bo'lgan. Eng muhimi shundaki, yuzaki qaraganda nuqtalar o'ta tartibsiz joylashayotgandek bo'lsa ham aslida hosil bo'lgan rasmda ham ma'lum qonuniyatni sezish mumkin. (6-rasm)



6-rasm


6-rasmdan ko'rinib turibdiki, qora rangli asosiy sohadan tashqari yana unga aynan o'xshash mayda sohachalar ham paydo bo'ladi. Ular boshlang'ich $(x_0 ; y_0)$ nuqtadan uzoqlashgan sayin maydalashib ketaveradi. Ammo ularning tuzilishi qanchalik mayday bo'lmasin, asosiy (katta sohaga) o'xshaydi. Ya'ni fraktal tuzilish saqlanib qoladi. 6-rasmdagi shakl 200-500 takrorlanishda hosil bo'ladi. Biz hozircha faqat qora rangli nuqtalar hosil qilgan soha to'g'risida fikr yuritdek. Yuqorida ta'kidlanganidek, doiradan tasharida ham har xil rangli nuqtalar hosil bo'ladi va bu nuqtalar Mandelbrot to'plamining chegarasini tashkil qiladi. O'sha chegaradagi nuqtalar joylashuvining 200 marta kattalashtirilgan ko'rinishi 7-rasmda keltirilgan.



7-rasm

E'tibor berib qarasangiz chegara ham fraktal tuzilishga ega ekanligining guvohi bo'lasiz. Yani oq-qora yo'laklarga o'xshash mayda yo'lakchalar mavjud.

Agar (1) formuladagi c parametrlarning qiymatini har xil qilib o'zgartirish yo'li bilan har xil algebraik fraktallarni hosil qilish mumkin. Ushbu fraktallarni chizishda kompyuter haqiqiy nozik didli rassomga aylanadi. Kompyuterda mavjud bo'lgan ranglar jilosi hosil bo'layotgan fraktallarning yanada qiziqarli va chiroyli bo'lishiga asos bo'lib xizmat qiladi[13,20]. (8-rasm)



8- rasm

3.3. Jyuli to'plamlari.

Mandelbrot to'plami bilan uzbiy aloqada bo'lgan Jyuli to'plamlari XX asrning boshlaridayoq matematiklar Gastanom Jyuli va Perom Fatu tomonidan o'rganilgan. 1917- 1919 yillarda ular tomonidan kompleks o'zgaruvchili funktsiyasini iteratsiyalash bilan bog'liq bo'lgan natijalar olindi. Umuman olganda, bu fakt alohida muhokamani talab etadi va o'z vaqtida bir necha o'n yilliklarga oldinlab ketga matematik tadqiqotga yorqin misol bo'la oladi (bunda olimlar o'zlari tadqiq qilayotgan ob'ektlarning ko'rinishlarini taxlil qilishlarigina mumkin edi). Bu erda kompleks o'zgaruvchining $f(x) = z^2 + c$ funktsiyasi uchun Jyuli to'plamlarini qurishusullarini keltirib o'tamiz. Aniqroq aytganda, biz “ to'ldirilga Jyuli to'plamlari”ni quramiz.

